



Dilorom Yormatova

Qishloq xo‘jalik fanlari doktori (DSc), professor
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

HAZRAT ZAHIRIDDIN BOBURNING FARZANDLARI VA KATTA O‘G‘IL HUMOYUN HAQIDA TASHBEHLAR

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Bobur vasiyatiga sodiq qolgan Humoyunning hayot yo‘li va murakkab taqdiri badiiy-publitsistik ruhda tasvirlanadi. Unda ukalari bilan ziddiyatlar, kechirimlilik, musofirlik yillari hamda taxtni qayta qo‘lga kiritish jarayonlari yoritiladi. Muallif Humoyunni bag‘ri keng, ko‘ngli yumshoq, insonparvar, biroq siyosiy kurashlarda ko‘p sinovlarga duch kelgan shaxs sifatida talqin qiladi. Shuningdek, uning ilmga, kitobga va ma‘rifatga e‘tibori ham ko‘rsatib beriladi. Asar orqali sadoqat, mehriyat, hokimiyat va tarix saboqlari badiiy mushohada asosida ochib beriladi.

Maboda siz ingliz yozuvchisi va tarixchisi Goskoyin Bembernining “Buyuk mo‘g‘ullar” (“Великие Моголы”) nomli kitobini o‘qir ekansiz, unda Hazrat Sohibqiron Amir Temuridan tortib yetti avlod haqida, Amir Temur haqida faqat uning Hindistonni bosib olishi, qolgan Bobur va Boburiyodalarni – Bobur Mirzo, Humoyun, Akbar, Jahongir, Shoh Jahon va Avrangzeblarning Hindiston saltanatini boshqarishi haqida yaqqol tushunchaga ega bo‘lasiz.

Aytishlaricha, Bobur o‘g‘li Humoyunga: “Ukalarining senga ozor berganlarida ham ularga jazo berma”, degan so‘nggi so‘zlarini jon berishdan oldin qayta-qayta takrorlagan. Tarixchilarning ma‘lumotlariga ko‘ra, Humoyunga ukalari tomonidan juda ko‘p marta ozor yetadi. Ular bir necha marta akasiga va davlatga xiyonat qilishadi, ammo har gal jazo berish vaqti kelganida Humoyun ukalari Komron, Askariy va Hindolni kechirib, keng fe‘llik qilgan. Chunki, ota vasiyatini ikki qilolmagan. Humoyun aslida tabiatan ishonuvchan bo‘lib ukalarining soxta ko‘z yoshlariga qarab, tashqi tomondan qarab baholagan va otasining aytgan so‘zlari doimo yodida bo‘lib oilaviy kelishilgan. Ammo o‘zi esa, bir paytlar o‘zining dushmanlari va Afg‘onistondagi ukalarining kutilmagan xiyonatlaridan so‘ng, qiyin ahvolga tushib, Eronga yordam so‘rab keladi, shunda Eron shohi, nega mendan yordam so‘rab kelding, sababi nimada

Dilorom Yormatova

Professor, Doctor of Sciences (DSc) in Agriculture
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan

SIMILES ABOUT THE CHILDREN OF HAZRAT ZAHIRIDDIN BABUR AND HIS ELDEST SON HUMAYUN

ABSTRACT

This article depicts the life journey and difficult fate of Humayun, who remained faithful to Babur’s final advice, in a historical and publicistic style. It highlights conflicts with his brothers, his repeated forgiveness, years of exile, and the process of regaining the throne. The author portrays Humayun as a compassionate, kind-hearted, and humane ruler who faced many political trials. His respect for knowledge, books, and learning is also emphasized. Through this portrayal, the work reveals reflections on loyalty, mercy, power, and the enduring lessons of history.

degan savolni beradi. Shunda Humoyun o‘ylab ham o‘tirmasdan: “Ukalarimning dushmanligi va tushunmasligi tufayli”, deydi.

U aytishi mumkin edi, o‘zi ularga qarshi turishni istamasdi, bu haqda og‘iz ochmaydi. Humoyunning davlatni boshqaruv davrida ukalari turli xil fitnalar, hiylalar qilib isyon ko‘tarishib, janglarda mag‘lub bo‘lishib, keyin qilichlarini bo‘yniga osib, yolg‘ondan yig‘lab kechirim so‘rab kelishardi. Humoyun bu holatni ko‘rib, ko‘zlarida yosh bilan ukalarini o‘rnidan turg‘izib, quchoqlab, kechirib, ularni bayram dasturxoniga taklif etardi va sovg‘alar, yaxshi mansab berib, biron bir viloyatga jo‘natardi. Otasi Hazrat Boburning qilgan vasiyati shunchalar, uning qalbiga o‘rnashib qolgan ediki, tarixchilarning yozishicha, ukalarning kechirib bo‘lmaydigan gunohlarini ham kechirib, bag‘riga bosardi.

Bobur tomonidan Humoyunga qoldirilgan Hindiston mamlakati, tashqi tomondan tinch va osyishta o‘xshasa-da, ammo tahlikali holatda edi. Boburshoh vafot etganida Hindistonni egallaganiga endigina to‘rt yil bo‘lgan edi. Hali davlat tuzumi bir maromda ishga tushmagan bo‘lib, chetdagi rojaliklar tomonidan xavf-xatarlar ko‘p bo‘lgan. Haligacha turli toifadagi dushmanlarning mavjudligi xuddi harbiy bosib olishga o‘xshar edi, chunki Boburshohning Ibrohim Lo‘diy va Rana Sangaday ikkita kuchli sultonni yengib o‘rniga o‘tirgani tufayli, Boburning sharaffi nomi bilan hurmatlanib turgan bo‘ladi.

Bundan tashqari, Boburning safdoshlari orasida shaxsan unga sodiq bo‘lgan harbiylar ko‘p bo‘lgan, mana shu sodiqlik tufayli Boburshoh Hindistonni o‘z qo‘lida ushlab turgan. Humoyun otasi kabi kuchli xarakterga ega emasdi, otasining sodiq mulozimlari ham to‘rt aka-uka o‘rtasida bo‘linib ketadi. Mulozimlar ichida yangi tashkil qilingan boburiylar saltanatini saqlab qolishdek murakkab vazifani o‘z bo‘yniga olgan, ammo boshlagan ishini oxiriga yetkazadigan shaxslarni topishning o‘zi qiyin bo‘lib qoladi.

Humoyun olib borgan janglar ro‘yxatini qarasa, u aqlli, kuchli va mardonavor edi, chunki otasi qayerga yuborgan bo‘lsa hamma janglarda g‘olib kelgan, ammo jang strategiyasini kam bilardi. Humoyunning ojiz tomoni shunda ediki, dushmanlar bilan bo‘lgan janglarda g‘alabadan yoki bir qo‘rg‘onni olgandan so‘ng uzoq vaqt g‘alaba nashidasini surar edi, sharaf bilan olgan qo‘rg‘onining yaxshi tomonini topib zavqlanar edi.

Humoyun Qandahorga qarab aylanma yo‘llar bilan sharqiy tomondan kirib kela boshladi, ammo yo‘lda vaqt tig‘iz bo‘lishiga qaramasdan yodgorliklarni ko‘rib, ularning bezaklarini xayolida chizib, tomosha qilib kelardi. Ayniqsa, u Kaspiy dengizini ko‘rishni xohlardi, unga Javhar bu dengiz doimo tuman ichra deb ta‘kidlashiga qarmasdan o‘z niyatidan qaytmadi. Tabriz shahrining go‘zalligi, uni hayron qoldirardi, ammo shaharning yarmi zizilalardan xarobaga aylanganini u taqdirning murakkab ishlariga o‘xshatardi. 1545-yilning fevral oyida u shahzoda Murod va uning askarlari bilan birlashdi va birgalikda Qandahorga kirdilar.

Askariy tomonidan qo‘riqlanayotgan Qandahor, Humoyunga 3-sentabr 1545-yilda taslim bo‘ldi va kelishilgandek shahar forslar ixtiyoriga berildi. Tarixchilar yozganidek, suv ko‘tarilishi va qaytishi qonunlariga asosan Humoyunning ishlari

yaxshilanib, uning huzuriga qaytib keluvchilar ko'paydi. Endi shahzoda emas, balki podshoh taxtidagi Humoyunning ishlari o'nglana boshladi, odamlar qo'yga o'xshagan bo'lib biri qayoqqa yursa boshqalari ham shu tomonga burilib keta boshlaydi, degan so'zlarni yozadi, shu davrdagi bir tarixchi.

Oradan ko'p o'tmay Hingdistonning imperatori hisoblangan Humoyunning davlati kuchli bo'lib ketadi va Qandahorni Eron shohidan jang qilib qaytarib oladi. Aslida Eron shohi shunday bo'lishidan qo'rqib, kichkina o'g'lini u bilan birga jo'natgandi, bolaning o'limidan keyin ular o'rtasida bo'shliq hosil bo'ldi, bu vaqtda Humoyun kutilmagan holatda ana shu bo'shliqni to'ldirishga harakat qildi, uning o'rnida boshqa bo'lsa ham shu ishni qilardi.

Endi Humoyun Kobulni o'ziga olishni niyat qildi, bu ishga kuchi yetishiga ishondi, yana qon to'kilmasdan oladigan ko'rindi. Chunki, Komronning juda qattiqqo'lligidan uning qo'l ostidagi askarlar Humoyun kelayotganini eshitib, qochib kelib unga qo'shila boshladilar. Oxir-oqibat ukasi Komron shaharni tashlab qochib qoladi. Ushbu voqeadan so'ng nihoyat Humoyun va Hamida uch yildan ortiq intizorlikdan so'ng o'g'illari bo'lajak Ulug' Akbarni uch yoshga to'lgan holda ko'radilar. Endilikda bu shaharda bayram qilishga yana bir sabab bo'ldi, uch yoshli Akbarga sunnat to'y o'tkazildi, demak, bayramga asos bor edi, ko'pgina pahlavonlar kurash tushib ko'ngil ochish ishlarini oliy darajada o'tkazdilar. Kurashlarda Humoyunning o'zi ham qatnashdi, uning kayfiyati juda ham yaxshi edi, chunki u yana podshohlik mansabiga qaytgandi. Bolalarni kurashga o'rgatish san'ati bu davralarda juda erta boshlangan. Bir necha oy oldin saroyda Akbarni uch yosh to'lmasdan turib o'zidan katta amakivachchalari bilan kurashtirib ko'rilganda Akbar, Komron amakisining o'zidan katta o'g'li Ibrohimni olishib yiqitgan edi.

Ikki shahzoda gul solingan nog'orani talashib qolishadi, shunda Komron qani o'zlari ko'rsinlar, deb ularni kurashtiradi, Akbar Ibrohimni yengadi. Abulfazlning hikoya qilishicha, yoshgina bo'lishiga qaramasdan Allohning irodasi va bergan kuch quvvati bilan Akbar belchalarini mahkam bog'lab, yengchalarini shimarib Ibrohim Mirzoni kurash qoidalariga amal qilgan holda uni dast ko'tarib olib so'ngra yerga tashlaydi, shu on bu kurashni kuzatib turganlar qiyqirib yuborishadi. Ammo Komron ko'nglida bu narsani yaxshilikka jo'ymaydi va ancha og'ir oladi.

Keyinchalik Humoyun va Komron o'rtasidagi jang sakkiz yil davom etadi. Humoyun doimo g'alaba qiladi, jangda uning bir aybi, himoyani kuchli qilmasdi, natijada ikki marta Komron g'alaba qildi, ammo oddiy xalq Komron dan bezib ketgan bo'ladi, har gal Komronning g'alabasidan keyin Humoyun yana undan Qandahorni tortib olardi. Qandahorning mahalliy xalqi uning bemaza qiliqlaridan ko'ra, Humoyunday bag'ri keng, yumshoq tabiat podsho saltanatida fuqora bo'lishini ma'qul ko'rishganlar, shuning uchun Humoyunga g'alaba osonroq kelardi. Komronning yaqin kishilari ochiqdan-ochiq Humoyunni Komronga nisbatan qattiqqo'l bo'lishni o'rgatdilar, uning yaqin odamlari qolmadi, eng qizig'i shundaki, tantanali ravishda ular Humoyunga sodiq bo'lishga qasamyod qildilar.

Unga barcha siyosiy, ishlarda bo'ysunishga, barcha ishlarda uni qo'llab-quvvatlashga qasam ichdilar. Komron avvalgiday akasidan kechirim so'rasa, uni

kechirib bayram va tantanalar qilib, sovg'alar beradi deb o'ylagandi, ammo bu safar Humoyunning ukasini kechirish niyati yo'q edi. Komron endi akasining rahm-shafqatidan umidvor bo'lmasayam ham bo'ladi. Eng kichik ukasi Hindol, haj ziyoratidan qaytganidan keyin Humoyunga xiyonat qilmadi va sodiq bo'lib qoldi, 1551-yilda akasi uchun jangga kirib, mardonavor halok bo'ldi. Askariyni Humoyunning janggohlaridan birida uzoq vaqt zanjirband qilib saqlab turishdi, ammo vaqtlar o'tgandan so'ng uni kechirib Makkaga jo'natdi. Makkaga jo'nab ketgan Askariy yo'lda boraturib, Damashq yaqinida dunyodan o'tadi.

Komron akasi Humoyunni bir necha martalab aldadi, uning xiyonatlariidan so'ng, saroy ahlining uni o'ldirish haqidagi talablari, kundan kunga jiddiy bo'lib borardi, chunki unga mutlaqo ishonch yo'q edi. Eng so'nggi xiyonati yana oshkor bo'ladi, 1552-yilda shu vaqtda Hindistonning imperatori hisoblangan Shershohning o'g'li Islom shoh bilan til biriktirib akasiga qarshi urush boshlashga harakat qildi. Bu yerda Komron Islom shohga maktub noma she'r yuboradi, shoh she'rni o'qib endi Komronning ahvoli og'ir ekanligini bilib, uning she'rini olib kelgan kishiga masxaromuz ming rupiya beradi, bu degani, ustidan kulib, men seni qo'llamayman degani edi.

Endilikda Komron Islomshoh saroyidan ayol kishining ko'ylagini kiyib Panjob hukmdori sulton Odam Gxakkara huzuriga qochib boradi. Sulton Odam qochoqni ushlab olib Humoyunga qaytarib yuboradi. Podshoh bo'lsa ham Humoyun endi saroydagilarning ra'yiga qarashga majbur bo'ladi, ma'lumki, ukasi hech qachon yomon qiliqlarini tashlamaydi. Shunda ham ukasini o'ldirmay, uning ko'zlarini ko'r qilishga buyruq beradi. Bu safar ham avvaliga birlashish sharafiga katta tantana bo'ldi, ammo bayram hech kimga tatimasdi, hamma uning tugashini kutardi, Komronning o'zi ham, bu safar oxirgi marta bayram ekanligini sezib turardi. Barcha saroy ahli qiynalib bayramni kuzatardi. Vaziyat tobora aniqlashardi, hamma bir narsani kutardi, u ham bo'lsa Humoyunning buyrug'i, qanday va qay tarzda bo'ladi.

Javhar sobiq xizmatkori chodirda Komronning oyoqlarini uqalar ekan, unga o'lim haqidagi rivoyatlarni aytib, inson o'limni mard bo'lib kutib olishi lozimligi haqida so'zlar edi. Ertasi kuni Javhar Komronning ko'zlarini o'yish uchun kelgan harbiylar oldida o'zi qolib, inson uchun dahshatli bo'lgan voqealarning to'g'ridan to'g'ri guvohi bo'ladi. Baquvvat erkaklar uning ustiga minib olishib ko'zlariga xanjar tiqishdi, ko'zlari oqib chiqa boshlagandan so'ng ustidan tuz va achchiq limonning sharbatini quyishdilar. Humoyun ko'zi ko'r bo'lib ojiz bo'lib qolgan Komronga Makkaga borib haj qilishga ruxsat berdi, Askariydan farqli o'laroq Komron Makkaga yetib borib haj amallarini bajardi va 1557-yil Arabistonda dunyodan o'tadi.

Shu bilan Humoyun ukalarning xiyonatlariidan qutuladi va katta saltanat yaratish haqida bosh qotira boshlaydi. Buyuk Boburiylarni hayoti haqida yozgan tarixchilar Komronni eng sotqin va yovuz inson sifatida tasvirlashadi, ular har doim bu shaxsga qiziqib, uning ahmoqona qiliqlari haqida yozib qoldirishga harakat qilganlar. Yumshoq xarakterli Humoyun haqida kam yozilgan, ammo razil va sotqin Komron ko'proq e'tiborda bo'lib keldi.

Shuni aytish kerakki, u ham o'zicha haq bo'lgan, Boburning o'g'li sifatida u

ham taxt egasi bo'lishi mumkin edi. Albatta, Temuriylar yaxshi bir odat u tufayli Komronni yomon qabih ishdan, go'dak Akbarni o'ldirishdan saqlab qoldi. Shu asosda Komronga akasi Kobulday viloyatni berdi, ammo Komron boshqa hududlar ham uniki bo'lishi lozim, deb hisobladi.

Vaqt kelib bor-yo'g'idan ayrilgan, zaiflashib qolgan akasini qabul qilishni istamadi. Humoyun esa ukasining sotqinligini necha marta kechirdi. U hech qachon ukalariga nisbatan yomonlik qilolmasdi. Ammo saroydagilarning talabini bajarish uchun o'ziga og'ir bo'lsa ham Humoyun og'ir jazoni ukasiga qo'lladi.

Aslida zamonlar o'tishi bilan bilamizki, doimo ham podshohlarning ixtiyori o'zida bo'lmaydi, ular saroy ahli fikriga rozi bo'ladilar va ular bilan hisoblashadilar. Humoyun imperator sifatida, temuriylarga xos fikrlab, Amir Temur bobosiga o'xshab katta markazlashgan davlatni boshqarishni yoki Hindiston va Eron kabi mamlakatlarda bir tuzimli davlatda otasi Bobur ko'rsatgan yo'ldan borishni xohlardi. Chunki, shu bugungacha taxt uchun aka-ukalar o'rtasida dushmanlik bir-birini o'ldirishga olib keladi. Humoyunning dushmani Gujorat sultoni Bahodur o'zining barcha aka-ukalarini o'ldirib, keyingina 1526-yil taxtga o'tirgani tarixda qoldi.

Turkiya sultoni Muhammad (Mexmet)1595-yilda taxtga o'tirganida o'zining o'n ikkita aka-ukasini o'ldirib yubortiradi. Ushbu voqealar tarixiy aniq ma'lumot ekanligini eshitgan buyuk Akbarshoh hayron qoladi va bu yovuzliklarga o'z saltanatida mutloq yo'l qo'ymaydi. Markazlashgan davlatchilik tizimi yo'lga qo'yilgan mamlakatlarda bu holat oddiy hol bo'lgan.

Humoyun esa bunday ishlardan uzoq holda boshqacha tarbiyalangan. Chunki, Humoyun qarindosh-urug'larga mehrlil bo'lishi haqida tarbiya olgan edi. Shuning uchun u o'z ukalarni sovuqqonlik bilan o'ldirishga ruxsat berolmasdi. U o'zi insonparvar tabiatli bo'lib, Boburiylar sulolasi tarbiyasini olgan edi. Kelajakdagi imperiyaning baxti va kelajagi uchun Hindistonda uning oilasida o'g'li ham bitta va nevarasi ham bitta yolg'iz o'g'il bo'ldi va ular toj-u taxt uchun hech kimni qatl etishmadi.

Raqobatlar qancha katta bo'lmasin ammo aka-uka xunrezligi ularning tarixida kuzatilmadi. Biroq Akbardan keyingi Boburiylarda xuddi boshqa mamlakatlardagidek aka-ukalar o'rtasida xunrezlik, qon to'kish ishlari boshlandi. Humoyunning 1543-yilda majburan Hindistondan ketishidan so'ng, bu mamlakat bilan aloqa mutlaqo yo'qoldi, Komronning Shershohdan yordam so'rab borganini aytmamak boshqa aloqalar bo'lmadi. Shu yillarda Shoh Ismoil Safaviy Boburning hokini xavfsiz ravishda Agradan Kobulga olib ketishiga ruxsat beradi va shu bilan Boburiylarning Hindistonda mutlaqo qiladigan ishlari qolmadi, desa bo'lar edi.

1554-yilda Shoh Ismoil dunyodan o'tadi va uning saltanati sekin-asta parchalana boshlaydi. Dehli uchun uchta toj-u taxt da'vogari bo'lib ular bir-biri bilan kurasha boshlaydilar, mayda mamlakatlar mustaqillik uchun harakat qiladilar. Bir paytlar To'g'laqiylar saltanatidagi boshboldoqliklar Amir Temurning Xaybar safarini keltirib chiqargan edi.

Bir-birini o'ldirayotgan qirg'in-barot urushlar paytida Sur sulolasi Humoyunga o'z darvozalarini keng ochib, unga Hindistonga qaytishni taklif qiladi. Darvozalar

shunday ochildiki, Humoyun Bayramxon boshchiligida hech qanday qarshilikka uchramay, Panjob orqali Sirxindga kirib keldi. Shu vaqtda eng kuchli va jangari hisoblangan Iskandarshoh ularni kutmoqda edi, bu qo'shin boshlig'i jangga talabgor, eng kuchli shohlardan biri edi. Hatto Roxtak bir paytlar Jalam daryosi bo'yida Shershoh tomonidan qurilgan juda mustahkam qal'asi bo'lishiga qaramasdan jangsiz taslim bo'ldi, aslida Rohtak qo'shini bir paytlar juda kuchli ekanligi bilan nom chiqargan edi. Sirxind tagida Iskandarshohning cherigi son jihatidan Humoyunning qo'shinidan bir necha marta ko'p bo'lishiga qaramasdan Bayramxon harbiy taktikalari tufayli jangda g'olib chiqdi.

Barcha tirik qolgan askarlar Bayramxonga o'z jonlari bilan qarzdor edilar va ular 1555-yil 22-iyundagi jangda g'alaba bayrog'ini ko'tardilar. Bayramxonning asosiy hiylasi shu bo'ldiki, u Panipat jangida olgan ta'limi tufayli jangda avvaldan himoya usullarini o'ylab qo'yib, qo'shinni ochiq daladan olib chiqish uchun ularga himoya hududini tashkil qildi va shunday hiyla orqali jangda g'olib bo'ldi. Bu jangda Iskandarning o'zi tezlik bilan sharmandalarcha qochib qoldi va Dehli darvozalari g'alabadan so'ng Humoyun uchun keng ochildi va uni shod-u xurramlik va xursandlik bilan kutib oladilar.

1555-yil 23-iyulda Humoyunga otasining taxtiga yana takroran o'tirish nasib etdi. Ushbu davrda uning taxti kutilmagan darajada osoyishta bo'ldi. Humoyunning atrofida dushmani bo'lgan Surlar sulolasini quvvatlaydigan afg'onlar bo'lsa ham, vaqtda, u mayda dushmanlarga qarshi o'z buyrug'i ostida ishongan harbiy qo'mondonlarni yubora olardi. Ular Humoyunning ishonchini oqlab kelardi. Keyingi o'n yil davomida Hindistonni boshqarishda Humoyunning eng katta yutuqlaridan biri qaysi tomonga qarab jang qilsa, bitta dushmani kamayardi. Boshqa dushmanlari bosh ko'tarib qolishi aniq edi, uning harbiy taktikalarni bilgan ishongan qo'mondonlari kam edi.

Endi ukalarining hammasi halok bo'lgandan so'ng ularning qaramog'ida quroldoshlari ham uning huzuriga kelishdan boshqa ilojlari qolmadi. Humoyun endi podshoh bo'lib o'z quvvatini tiklab olgandan so'ng o'ziga sodiq, og'ir kunlarida, davlatsiz, toj-u taxtsiz onlarda u bilan birga bo'lgan, tashlab ketmagan insonlarni taqdirlash vaqti kelgandi. Yaqin insoni Bayramxon "Xoni – xoniy" ("xonlar xoni") unvoni bilan taqdirlandi. Oddiy faqir xizmatchisi Javhar tez ko'tarilib, bir necha rahbarlik mansablarida ishladi. Keyinchalik uni xazinabon qilib tayinladi. Javhar shunchalar boy badavlat, obro'li, oliy maqom darajaga yetdiki, endilikda u o'z xonadonida turli davlat elchilarini qabul qilishi mumkin edi.

Javhar umrining oxirgacha Boburiylarga sodiq qoldi, har doim duoga qo'l ochganida, bir so'zni takrorlard, hatto o'z kitobini "Butun dunyo ulug' podsho Temur avlodlari qo'lga o'tsin va Dehli shahri doimo poytaxt bo'lib gullab yashnasin" degan duo bilan tugatgan edi.

Ushbu davrlarda Dehliga Yevropa mamlakatlaridan ko'p sayyohlar kelardilar va ular Buyuk Boburiylarning o'zlari bilan so'zlashib ma'lumotlar ola bilgan. Ulardan biri Turkiyaning admirallaridan biri bo'lmish Sayid Ali Rayi bo'lib, u Humoyunni sevimli mashg'uloti ustida uchratadi. Bu vaqtda imperator rasadxona qurish uchun bir joy

tanlagan va endi zarur bo'lgan ishlar-qurollarini to'plarni ularni o'rganayotgan davrda ko'radilar. Saroy hayotida she'rxonlik lingua franca va diplomatik munosabatlar ham yuqori darajada edi, deydi turk sayyohi.

Hatto podshohning kamonchisi Humoyunning do'sti bo'lgan bir chiroyli yosh yigit ham adabiy suhbatlarda faol qatnashganini yozadi. Sayid Alini birinchi marta Humoyunga ko'rsatganlarida uning sharafiga bitilgan ikki misra she'ri va Hindistonni yangidan bosib olishi haqidagi tarix juda qiziqirdi. Albatta, ushbu she'rlarning orqasida Said Aliga katta sovg'alar keldi. Oradan ko'p o'tmay Sayid Ali o'z imkoniyatini saroydagi jozibali nur taratuvchiga yozilgan madhiya g'azali tufayli yanada obro'lir oq bo'lib ketadi.

Ushbu g'azal o'qilganda Humoyun to'lqinlanib ketib: "O, Xudo haqiqatan ulug'vor" degan so'zlarni xitob qildi, bu so'zlarni oddiygina kamtarin turk emas, balki o'zi yozganidek suyungan edi. She'rxonlik bahslari bir paytlar Shershoh tomonidan bino qilingan juda mahobatli va chiroyli Sher Mandal deb nomlangan binoda olib boriladi. Keyinchalik bu binoni Humoyun o'ziga kutubxona qilib moslashtiradi. Bu yerda o'zi to'plagan qimmatbaho qo'lyozmalarini nihoyat xavfsiz holatda yaxshi joylashtiradi.

Bu kitoblarning ko'plarini otasi Hazrat Bobur Haybardan keltirgan bo'lib, ular Humoyun bilan birga barcha qiyin, og'ir uysiz, vatansiz qiynalgan kambag'al davrlarida ham saqlab avaylab olib yurgan. Endilikda Humoyun xohlaganiday kutubxona qilib, u yerga aziz kitoblarni joylashtiradi. Yana bir quvonchli voqea shu bo'ldiki, uning uchun Komronni qo'lga olishganida uning mol-mulki orasida ikki tuyaga ortilgan, bir vaqtlar jangda Komron undan tortib olgan qimmatbaho kitoblari yana uning qo'lga qaytib keldi. Komron ham haqiqiy Temuriylarga xos ushbu qimmatbaho xazinani hamma joyda o'zi bilan birga olib yurgan, yo'qotmagan, u ham qo'lyozmalarni yuqori baholagan, demak, barcha temuriy va boburiylarga xos bo'lgan kitobsevarlik ularga qondan o'tib kelayotgan edi.

Humoyunning o'g'li, Akbar ushbu kutubxona binosida Mirsayid Alidan rasm solishni o'rgandi. Humoyun bu safar davlatni boshqarish borasida tajribali, aqlli rahbar sifatida shakllandi va boshqalarga misol bo'laoldi. Shershoh avvallari Humoyunni pala-partish nomi ulug', o'z mablag'larini sarflashda hech narsani tushunmaydigan, jang maydonida qarshi turolmaydigan inson deb bilardi. Humoyun podshohligining oxirgi besh yilligida hamma narsani aql bilan, iste'dodli hukmdor sifatida boshqardi. U viloyatlarni boshqarish tizimida o'ziga xos usullarni ishlab chiqdi, soliq yig'ish ishlarida alohida o'zgarishlar kiritdi. U kiritgan tartiblar keyingi bo'lgan tartibsizliklar natijasida izdan chiqib ketdi, ammo tuzim saqlanib qoldi.

Humoyun o'z tuzimini saqlab qolmoqchi edi, ammo kutilmagan bema'ni o'lim uni olib ketdi. Endi Akbar o'g'lining zimmasiga otasi maqsad qilgan barcha ishlarni amalga oshirish va mamlakatda uzoq muddatli mustahkam davlat tuzimini amalga oshirish vazifasi yuklandi. Humoyunning barvaqt o'limi ham uning hayotida bo'lgan kutilmagan muvaffaqiyatsizliklar, baxtsizliklarga o'xshagan bo'ldi, ahmoqona o'lim vaziyati ham uning odatlariga mos bo'lib chiqdi.

1556-yil 24-yanvarda yuqorida o'zining kutubxonasidagi ochiq chiroyli ayyonda o'tirib yaqinda Makkadan qaytgan ziyoratchilarning hikoyalarini tinglardi. Ayni vaqtda qatorda o'zining munajjimi bilan Zuhra yulduzning saodatli vaqtda chiqishi to'g'risida suhbat qurardi. Podsho ana shu insonlar uchun saodatli bo'lgan paytda mashvarat chaqirib, yangi mansablarga tayinlanganlarni e'lon qilmoqchi edi.

Keyin o'rnidan turib pastga tushadigan osma to'rtburchakli zinapoyadan usti silliq bo'lgan tomning ustiga tusha boshladi. Humoyun oyog'ini ikkinchi zinaga qo'yganida yaqindagi Shershoh machitidan nomoz o'qishga chaqirgan imomning azon ovozi eshitildi. Humoyun burilib, o'zining sodiqligini va hurmat ehtiromini bildirib, tizzalarini egishga harakat qilganida oyog'i bilan kiyimini bosib qoldi. U yiqildi va pastga zina bo'ylab dumalab ketdi va borib boshi bilan toshning o'tkir uchiga urildi. Uch kun yotib, Humoyun dunyodan o'tadi. Dehlidan uch yuz mil olisda Kalanpur uchun janglarda qatnashayotgan o'n uch yoshli Akbarga tezlik bilan chopar yuborildi. Akbar yetib kelguncha ehtiyot choralari ko'riladi. Akbar kelib uni podsho sifatida taxtga o'tirg'izgunlaricha mahalliy aholi o'rtasida g'alayon ko'tarilmasligi uchun podshoning o'lganini yashirib turdilar. Bekasi ismli mulla tashqi ko'rinishi bilan mahrum imperatorga juda o'xshardi, uni shohona kiyintirib daryo bo'yida g'azabl原因an mahalliy aholi oldiga olib chiqdilar.

Buyuk Boburiylardan olti podshoh qatorida ichida Humoyun shaxsi-inson sifatida anchagina bo'sh, yumshoq xarakterga ega, omadsiz va kam ahamiyatli ega bo'lib ko'rinishi mumkin. Aslida uning xarakteri otasiga va keyingi avlodlarga qaraganda ancha yumshoq bo'lib ko'rinadi. Albatta, uning zimmasiga tushgan davlat tuzimi va otasining o'rgatgan aqidalari, uni qat'iy, qasoskor bo'lmaslikka undagani, ikkinchidan hali Hindistonda Boburiylar sulolasi to'liq shakllanmagani uni shu holga olib keldi.

O'z oilasida ko'rgani uchun chekishga moyillik unda ko'proq uchradi, keyingi avlodlardan faqatgina nevarasi Jahongirda sharob ichishga moyillik kuzatildi. Humoyunda o'zini qadrlamaslik, boshqalarga ishonch va ularni o'zidan ustun qo'yish xususiyatlari mavjud edi. Sayid Ali Rayisning Aleksandr Makedonskiy egallagan davlatlarning barisini Turkiya podshohi o'ziga buysundirdi, deya ahmoqona maqtanishlaridan so'ng uning so'zlariga Humoyun faqat Alloh ulug' deb xitob qilgan edi. Ammo Sayid Ali Rayisning aytgan so'zlari to'g'ri bo'lsa, "Turkiya podshosi yagona hukmdor, unga podsho unvoni mutlaqo loyiq, bu unvonga faqat ul insonning bir o'zi loyiq, boshqa hech kim bu dunyoda podsho emas" degan so'zlarni ayta oladi" dedi.

Humoyundan keyin boshqa bironta avlodlari uning podshohlarga noloyiq so'zlarini yaxshi yoki yomon deb, aytib o'tirmadilar. Humoyun o'ziga to'liq ishonmagan, turli xil irimlarga ishonadigan, ko'ngli bo'sh, o'zida kamchiliklar ko'p deb bilgan, bolalarcha sodda va yoqimli xarakterga ega bo'lgan inson albatta qattiqqo'l podshoh bo'lolmasdi. Ammo qarab ko'rsak, uning hayotida qator omadsizliklar, otasi hayotida ham xuddi shunday voqealar bo'lib o'tgan-u, dolg'ali umrining oxirida muvaffaqiyatlarga erishgan.

Mazkur kitob tarjimasini meni hayratga soladiki, nega yevropalik bo'laturib,

Boburiylar saltanatida muhim o‘rin tutgan malikalar haqida bir og‘iz ham so‘z aytilmagan. Boburnin o‘zi saltanatda o‘tirgan davrida onasi Qutlug‘ Nigor begim, katta buvisi Eson Davlat begim va opasi Xonzoda begimlarni qanchalar ulug‘lagani bugun ham ta‘rifga sig‘maydi. Barcha yaqin ayollarga va malikalarga janglardan qaytganida juda ko‘p sovg‘alar bergan. Hatto xolalari uchun alohida ko‘shklar qurib, ularning xizmatiga bir necha qizlarni qo‘ygan bo‘ladi. Sevimli ayoli Hamida bonuni jadayam avaylagan, uning iltimosi bilan farzandlari o‘lib ketavergani uchun Malika Gulbadan begimni katta ayoli tarbiyasiga topshirgan bo‘ladi. Hazrat Boburnig o‘z qo‘li bilan bitilgan “Boburnoma” bir tog‘da qolib ketganida, o‘ziga atalgan issiqroq joyni onasi va buvisiga berib, o‘zi dalada qorda kechasi bilan yotib chiqadi.

Xonzoda begim aslida o‘zini ukasi uchun qurbon qilib, o‘zi xohlamagan Shayboniyxonga majburan turmushga chiqib, ukasi va bo‘lajak Boburiylar saltanatini saqlab qoladi. Xonzodabegimni bu jasoarati keyingi tarixchilar tomonidan juda ko‘p marta o‘rganilgan va malikaga o‘ziga xos bo‘lgan baho berildi. Gulbadan begim tarixda birinchi marta o‘z akasi Humoyun haqida “Humoyunnoma” nomli kitobni bitib, kelajak avlodga Boburiylar saltanati, saroy tizimi, haram, aka-ukalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, qaynsingil va kelinoyi o‘rtasidagi mutahkam do‘stlikni ochib bera olgan, o‘z ko‘zlari bilan ko‘rgan va eshitganlarni bizga yetkazgan malika hisoblanadi.

Boburiylarning har biri podsholikni ota meros sifatida qabul qildi, hayot sahnasida o‘zidan baquvvat, kuchli jangchi podshoh kelib chiqqanida taxtga egalik huquqini yo‘qotishdi, har biri umrining oxirida Hindistonning podshohi bo‘ldilar. Humoyun aslida katta davlatning boshlig‘i sifatida ish boshladi, ammo harbiy jihatdan zaif, kuchsiz yangi davlat Hindistonda yashadi, ammo hayotning o‘zi uni omadlar va yutuqlar bilan doimo yuzma-yuz qilib qo‘ydi. Va shunday qilib, Humoyun o‘g‘li Akbarga katta Hindistonni meros qilib qoldirdi.